

**Saidova Parvina Mirzo qizi,**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o’qituvchisi

# TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA KASBIY PEDAGOGIK DEFORMATSIYANING TA’SIRI, KOMPONENTLARI VA BOSQICHLARINI YANGI YONDASHUVLAR ASOSIDA O’RGANISH

UO’K: 37.378.1

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL\\_2025\\_ISSUE\\_6\\_3](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_6_3)

---

## **SAIDOVA P. M-Q. TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA KASBIY PEDAGOGIK DEFORMATSIYANING TA’SIRI, KOMPONENTLARI VA BOSQICHLARINI YANGI YONDASHUVLAR ASOSIDA O’RGANISH**

Mazkur maqola kasbiy-pedagogik deformatsiyaning paydo bo’lish tarixi xususida qisqacha ma’lumot, ta’lim klasteri sharoitida kasbiy-pedagogik deformatsiyaning ahamiyati va ta’siri, komponentlari, va bosqichlarini yangi yondashuvlar asosida o’rganishni tahlil qiladi. Maqolada kasbiy-pedagogik deformatsiyaning zamonaviy yondashuvlar (masalan, Maslach, Jackson, Goleman, Vygotsky, Herbert Freudenberger) ko’rib chiqilgan. Xorijlik olimlarning kasbiy-pedagogik deformatsiyaning o’rganish bo’yicha tadbiriq etgan yangi yondashuvlari muhokama qilinadi. Natijada, kasbiy-pedagogik deformatsiyaning o’z vaqtida aniqlash va oldini olish muhim ekanligini ta’kidlangan. Shuningdek deformatsiyaning kamaytirish uchun qo’llaniladigan yo’l-yo’riqlar ko’rsatib o’tilgan.

Tayanch so’z va tushunchalar: Kasbiy-pedagogik deformatsiya (KPD), monotonlik, burnout, klaster, kognitiv va psixologik yondashuv, pedagogik-kommunikativ yondashuv, integratsiyalangan yondashuv, psixoterapevtik yordam, konstruktiv fikr almashinuv, stress, kasbiy axloqni rivojlantirish, emotsional intellekt, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, emotsional charchoq, depersonalizatsiya, kasbiy muvaffaqiyatsizlik, soft skills (yumshoq ko’nikmalar).

---

## **САИДОВА П.М-К. ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ КОМПОНЕНТОВ И ЭТАПОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕФОРМАЦИИ В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА НА ОСНОВЕ НОВЫХ ПОДХОДОВ**

В статье дается краткий обзор истории возникновения профессионально-педагогической деформации, анализируется значение и влияние профессионально-педагогической деформации в контексте образовательного кластера, ее компонентов и этапов на основе новых подходов. В статье рассматриваются современные подходы к профессионально-педагогической деформации (например, Маслах, Джексон, Гоулман, Выготский, Герберт Фрейденбергер). Будут обсуждены новые подходы к изучению профессионально-педагогической деформации, реализованные зарубежными учеными. В результате была подчеркнута важность своевременного выявления и профилактики профессионально-педагогических деформаций. Также даны рекомендации по уменьшению деформации.

Ключевые слова и понятия: Профессионально-педагогическая деформация (ППД), монотония, выгорание, кластер, когнитивно-психологический подход, педагогико-коммуникативный подход, комплексный подход, психотерапевтическая помощь, конструктивный обмен идеями, стресс, развитие профессиональной этики, эмоциональный интеллект, социальное сотрудничество, социальная поддержка, эмоциональное истощение, деперсонализация, профессиональная несостоятельность, мягкие навыки.

### **SAIDOVA P.M-Q. STUDY OF THE IMPACT, COMPONENTS AND STAGES OF PROFESSIONAL PEDAGOGICAL DEFORMATION IN THE CONDITIONS OF THE EDUCATIONAL CLUSTER ON THE BASIS OF NEW APPROACHES**

This article provides a brief overview of the history of the emergence of professional-pedagogical deformation, analyzes the importance and impact, components, and stages of professional-pedagogical deformation in the conditions of the educational cluster on the basis of new approaches. The article considers modern approaches to professional-pedagogical deformation (for example, Maslach, Jackson, Goleman, Vygotsky, Herbert Freudenberger). New approaches applied by foreign scientists to the study of professional-pedagogical deformation are discussed. As a result, it is emphasized that it is important to identify and prevent professional-pedagogical deformation in a timely manner. Also, guidelines for reducing deformation are indicated.

Key words and concepts: Professional and pedagogical deformation (PPD), monotony, burnout, cluster, cognitive and psychological approach, pedagogical and communicative approach, integrated approach, psychotherapeutic assistance, constructive exchange of ideas, stress, development of professional ethics, emotional intelligence, social cooperation, social support, emotional exhaustion, depersonalization, professional failure, soft skills.

#### **Kirish.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamdagi o'zgarishlar samarasini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-80-son 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida<sup>1</sup>gi Farmonida "pedagogik kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish"<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa o'qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan kasbiy deformatsiyaning profilaktik tizimini takomillashtirishni taqozo qiladi.

**Professional (kasbiy) deformatsiya** — bu insonning o'z kasbida uzoq vaqt ishlashi natijasida uning **xulq-atvori, fikrlashi, shaxsiyati**, hatto **muomala qilish uslubida** yuzaga keladigan **barqaror, ko'pincha salbiy o'zgarishlardir**. Masalan, shifokor — doimiy ravishda kasalliklar va xavotirli holatlar bilan ishlashi uni hissiy tomondan sovuq, befarq qilib qo'yishi mumkin. Huquqshunos

yoki tergovchi — odamlar bilan doimiy ehtiyotkorlik bilan muomala qilgani sababli, hatto shaxsiy hayotda ham ishonchsizlik bilan qarashi mumkin. O'qituvchi — sinfda tartib-intizomga e'tiborli bo'lganidan, u uyda yoki ijtimoiy hayotda ham odamlarga tanbeh berishga o'rganib qolishi mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, **professional deformatsiya** atamasi birinchi marta 1915 yilda amerikalik sotsiolog va jurnalist Hubert Langerok tomonidan kiritilgan. U o'zining «Professionalizm: Professional deformatsiya tadqiqotlari» nomli maqolasida bu hodisani ta'riflagan<sup>2</sup>. Langerock professional deformatsiya (yoki kasbiy deformatsiya) tushunchasini birinchi marta ilmiy adabiyotga kiritgan va bu hodisani kasbiy faoliyatning shaxsning fikrlash jarayonlariga va o'z faoliyatining jamoadagi o'rnini noto'g'ri baholashiga ta'sirini o'rganadi. Langerockning ta'kidlashicha, uzoq vaqt davomida bir xil kasb bilan shug'ullanish insonning fikrlash jarayonlari va o'z faoliyatini umumiy guruhdagi o'rnini baholashida deformatsiyaga olib keladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son

<sup>2</sup> Hubert Langerock «Professionalism: A Study in Professional Deformation». American Journal of Sociology Volume 21, Number 1 (1915) 30-44 page <https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/212465>

Rus-amerikalik sotsiolog olim **Pitirim Sorokin** (1889–1968) 1920-yillarda professional deformatsiyani o'rganib, uni insonning shaxsiyati va xarakterini salbiy tomonga o'zgartiruvchi hodisa sifatida ko'rgan. U ushbu tushunchani rus tilidagi ilmiy adabiyotga 1921 yilda kiritgan va kasbiy faoliyatning insonning fikrlash jarayonlariga va o'z faoliyatining jamoadagi o'rnini noto'g'ri baholashiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki sotsiologik dasturini taklif qilgan. Sorokin bu sohadagi ishlari «Professional deformatsiya» (yoki «Kasbiy deformatsiya») tushunchasining rivojlanishiga asos bo'lib, keyinchalik bu hodisa psixologiya va pedagogika sohalarida ham chuqur o'rganilgan. Pitirim Sorokin professional deformatsiya (kasbiy deformatsiya) tushunchasini birinchi bo'lib ilmiy adabiyotga kiritgan olimlardan biridir. U bu fenomenni o'zining «Sotsiologiya inqilobi»<sup>1</sup> nomli asarida muhokama qilgan. Ushbu asarda Sorokin inqiloblarni jamiyatning tabiiy qonunlari va siklik o'zgarishlar tizimi sifatida tahlil qiladi. U inqiloblarni jamiyat tuzilmasining deformatsiyasi sifatida ta'riflaydi va bu jarayonlar kasbiy faoliyatning shaxsiy xulq-atvor va fikrlash tarziga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

1930–1950-yillarda kasbiy deformatsiyaning ilk ilmiy tushunchalarining ilk ilmiy asoslarini yaratgan olimlardan biri — nemis psixologi va pedagogi Georg Kershenstein bo'lib, u o'qituvchilarning psixologik holati va ularning pedagogik faoliyatiga bo'lgan ta'sirini o'rganib **«Berufliche Deformation und ihre Verhütung» («Kasbiy deformatsiya va uning oldini olish»)** nomli asarida qo'llagan<sup>2</sup>. Bu asar 20-asrning o'rtalarida nemis pedagogikasida katta e'tibor qozongan va Kershenstein kasbiy deformatsiyaning psixologik va pedagogik jihatlarini tahlil qilgan. Kershenstein o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlarni va ularning salbiy ta'sirlarini tahlil qilgan. U o'qituvchilarning kasbiy deformatsiyasining rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillarni, masalan, uzoq muddatli ish yuki, stress va ruhiy tushkunlikni aniqlagan. Shu bilan birga, o'qituvchilarning kasbiy deformatsiyasini oldini olish uchun turli psixologik va pedagogik yon-

dashuvlarni taklif qilgan. Kershensteinning asari pedagogik faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kasbiy deformatsiyani tushunishda va unga qarshi kurashishda muhim manba sifatida ishlatiladi.

**Tadqiqot maqsadi.** Tadqiqotning umumiy maqsadi ta'lim klasteri sharoitida o'qituvchilarning kasbiy pedagogik deformatsiyaga duch kelishining sabablarini, bu deformatsiyaning qanday ta'sir qilishini va uning oldini olish uchun qanday samarali strategiyalarni ishlab chiqishni o'rganishdir. Bu o'z navbatida ta'lim sifatini yaxshilashga, o'qituvchilarni kasbiy charchoq va deformatsiyadan saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, bu tadqiqot ta'lim klasterlaridagi o'qituvchilarning professionallik darajasini oshirish va kasbiy deformatsiyani minimallashtirish uchun zarur bo'lgan yondashuvlarni taklif etishi mumkin.

Kasbiy pedagogik deformatsiya (KPD)ning belgilari quyidagicha (1-jadval):

Kasbiy pedagogik deformatsiya pedagogning psixologik va emotsional holatini salbiy ta'sir qiladi, bu esa ta'lim sifatiga ta'sir o'tkazadi. Kasbiy deformatsiyaning oldini olish uchun pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, ruhiy yordam, ish yuklamasini boshqarish, va professional rivojlanish imkoniyatlarini yaratish muhimdir.

**Asosiy qism. Ta'lim klasteri** – bu ta'lim, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish muassasalari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi tizim. **Kasbiy pedagogik deformatsiya** – pedagoglarning kasbiy faoliyati davomida yuzaga keladigan salbiy psixologik, axloqiy yoki kasbiy o'zgarishlar bo'lib, bu o'zgarishlar o'qituvchining dars berish uslubi, muloqoti va shaxsiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim klasteri sharoitida kasbiy pedagogik deformatsiyaning ta'siri o'qituvchilarning professional faoliyatiga, o'qituvchilarga hamda ta'lim muassasasining umumiy ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kasbiy pedagogik deformatsiya o'qituvchilarning psixologik, emotsional va jismoniy holatini yomonlashtiradi. Umuman olganda, ta'lim klasteri sharoitida kasbiy pedagogik deformatsiyaning ta'siri o'qituvchilarning kasbiy farovonligini pasaytiradi, o'qituvchilarga ta'lim sifatini yomonlashtiradi va ta'lim muassasasining umumiy ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, bu muammoni hal qilish uchun samarali choralar ko'rish juda muhimdir. Bun-

<sup>1</sup> Sorokin, Pitirim Aleksandrovich Philadelphia; J.B. Lippincott Company, (1925) 428 pages. - <https://catalog.hathitrust.org/Record/000974108>

<sup>2</sup> Georg Kershenstein. «Berufliche Deformation und ihre Verhütung». «Hogrefe Verlag» press. 1937, 143 page

1-jadval. Kasbiy pedagogik deformatsiya (KPD)ning belgilari

|   |                                          |                                                                  |                                                                 |                                  |
|---|------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|----------------------------------|
| 1 | Emotsional charchoq                      | Ruhiy va jismoniy charchoq                                       | Ishdan bezish                                                   | Darslarni robot tarzda o'tkazish |
| 2 | Befarqlik va ishsizlik hissi             | Talabalarga nisbatan befarqlik                                   | O'quvchilarga munosabatning qisqarishi                          | Yangi usullardan voz kechish     |
| 3 | Kasbiy qoniqishning pasayishi            | Motivatsiya yo'qolishi                                           | Mehnatning samarasizligi                                        | Qiyinchiliklar bilan yuzlashish  |
| 4 | Shaxsiy va kasbiy hayotning chalkashligi | Kasbiy hayot va shaxsiy hayot o'rtasidagi chegaraning yo'qolishi | Ijtimoiy aloqalarning pasayishi                                 |                                  |
| 5 | Kasbiy tanqidiy yondashuvning yo'qolishi | Stereotipik fikrlash                                             | O'z-o'zini tanqid qilishning yo'qolishi                         |                                  |
| 6 | Pedagogik qobiliyatlarning pasayishi     | Insonlar bilan ishlashdagi qobiliyatning kamayishi               | Yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarning qabul qilinmasligi |                                  |
| 7 | Ruhiy va jismoniy salomatlik muammolari  | Stress va depressiya                                             | Jismoniy kasalliklar                                            |                                  |

2-jadval. Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning komponentlari

| T/R | 1. Psixologik komponent                                    | 2. Ijtimoiy komponent                    | 3. Pedagogik-kommunikativ komponent                      | 4. Kasbiy-axloqiy komponent                | 5. Tashkiliy-kompensator komponent                         |
|-----|------------------------------------------------------------|------------------------------------------|----------------------------------------------------------|--------------------------------------------|------------------------------------------------------------|
| 1   | Emotsional charchoq (burnout)                              | Ijtimoiy izolyatsiya (jamoadan ajralish) | O'quvchilarga nisbatan sovuqqonlik                       | Pedagogik etika me'yorlarining buzilishi   | Mehnat sharoitining og'irligi (ko'p yuklama, byurokratiya) |
| 2   | Motivatsiyaning pasayishi va o'z-o'ziga ishonchsizlik      | Kasbiy mavqening tushishi                | Stereotipli va shablon dars o'tish                       | Avtoritar boshqaruv uslubining kuchayishi  | Klasterdagi resurslar yetishmovchiligi                     |
| 3   | Kasbiy faoliyatdan qoniqmaslik                             | Klaster ichidagi ierarxik bosim          | O'quv jarayonida yangilikdan qochish                     | O'zini ustun qo'yish yoki mutlaqlashtirish | Rahbariyat bilan ziddiyatli munosabatlar                   |
| 4   | O'quvchilar va hamkasblar bilan kommunikatsiyada muammolar | Hamkorlikdagi muvozanatning buzilishi    | O'quvchilarning individual yondashuvlariga e'tiborsizlik | Professional mas'uliyatdan qochish         | Tashkiliy qo'llab-quvvatlashning sustligi                  |

day deformatsiyani kamaytirish uchun nima qilish kerak?

- Pedagoglar uchun psixologik treninglar va psixoterapevtik yordam yo'lga qo'yish.
- Kasbiy rivojlanish uchun vaqt va imkoniyatlar yaratish.
- Motivatsion tizimni (moddiy va ma'naviy rag'batlar) rivojlantirish.
- Yaxshi rahbarlik va muhit yaratish (samarali muloqot, o'zaro hurmat, konstruktiv fikr almashinuvi).
- Ish yuklamasini adolatli taqsimlash.

Ta'lim klasteri sharoitida kasbiy-pedagogik deformatsiyaning komponentlari — bu muhitda ishlayotgan pedagoglarning kasbiy faoliyati davomida yuzaga keladigan ijtimoiy, psixologik va axloqiy muammolarni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlardir. Klasterlar ta'lim tizimida integratsiyalashgan muhit bo'lib, u yerda turli darajadagi ta'lim muassasalari (maktab, politexnikum, oliy


ta'lim, ilmiy-tadqiqot markazlari) o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Shu sababli bu muhitda yuzaga keladigan deformatsiyalar ham murakkabroq bo'ladi. Quyida kasbiy-pedagogik deformatsiyaning asosiy komponentlari keltirilgan (2-jadval):

Kasbiy-pedagogik deformatsiya komponentlari bir-biriga bog'liq holda pedagoglarning ish faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu deformatsiyaning oldini olish uchun o'qituvchilarga psixologik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kasbiy axloqni rivojlantirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash zarur.

Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning bosqichlarini o'rganish va unga yangi yondashuvlarni tatbiq etish o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhimdir. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning bosqichlari asosan quyidagicha ko'rsatiladi (1-rasm):

Ta'lim klasteri sharoitida kasbiy-pedagogik deformatsiyani o'rganish, uning ta'sirini tahlil qilish va yangi yondashuvlarni joriy etish muhim

1-rasm. Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning bosqichlari.



masaladir. Klasterning o'zaro hamkorlik, resurslar almashinuvi va o'qituvchilarning birgalikda ishlash muhitini yaratish kabi xususiyatlari, kasbiy-pedagogik deformatsiya jarayonini yengillashtirishda samarali bo'lishi mumkin. Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning ta'sirini o'rganishning yangi yondashuvlari quyidagi rasmda aks ettirilgan (2-rasm):

**1. Sistematik yondashuv** – o'qituvchilarni kasbiy faoliyatining har bir bosqichini tahlil qilishni, psixologik holatini va ish muhitini o'zaro bog'langan tizim sifatida ko'rishni nazarda tutadi. O'qituvchilarni individual ravishda va umumiy klaster darajasida baholash, deformatsiyaning paydo bo'lish sabablari va uning ta'sirini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Sistematik yondashuv kasbiy-pedagogik deformatsiya jarayonini tizimli tarzda tahlil qilishga imkon beradi. Bu yondashuvga psixologiya va tizim nazariyasi asos bo'ladi. Sistematik yondashuvni o'rganishda Tizimli psixologiya (Systemic psychology) va Tizimli-ixtisoslashgan yondashuvlar (Systemic-specialized approaches) keng qo'llaniladi. Xorijlik olimlar Ack-off, R. L. Gharajedaghi, J. tadqiqotlarida bu yondashuvlarni yoritib bergan. Bu tadqiqotlar kasbiy deformatsiya jarayonining tizimli o'zgarishini va uning turli bosqichlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganishda yordam beradi.

**2. Kognitiv va psixologik yondashuv** – o'qituvchilarning emotsional holati va psixologik

qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratish. Bu yondashuv yordamida kasbiy charchoqning oldini olish uchun o'qituvchilarni psixologik yordamga jalb qilish va stressni boshqarish treninglarini tashkil etish mumkin. Shuningdek, o'qituvchilarning psixologik va emotsional salomatligini yaxshilashga qaratilgan dasturlarni joriy qilish zarur. Kognitiv-psixologik yondashuv, kasbiy burnoutni o'rganishda, shaxsning o'z kasbiy faoliyatiga va stressga bo'lgan munosabatini o'rganishga asoslangan. Bu yondashuv kognitiv-behavioral psixologiya (CBT) va emotsional intellektni rivojlantirish (Emotional Intelligence) nazariyalariga tayanadi. Maslach, C., & Leiter, M. P. kognitiv yondashuv orqali burnoutning emotsional va psixologik omillari tahlil qilinadi. Goleman, D. o'z asarida, emotsional intellektning kasbiy charchoqni kamaytirishdagi rolini ta'kidlaydi. Beck, A. T. kognitiv-behavioral psixologiya asoslarini yoritib bergan.

**3. Tashkiliy yondashuv** – klasterda tashkilotning resurslarini va boshqaruv tizimini optimalashtirish. Tashkiliy yondashuvni qo'llash orqali, o'qituvchilarga eng yaxshi sharoitlar yaratish va ularning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kasbiy-pedagogik deformatsiyaning oldini olishda samarali bo'ladi. Bu yondashuv tashkiliy strukturani yangilash, ish yuklamalarini tartibga solish va ish o'rinlaridagi resurslarni yaxshilashni taqozo



2-rasm. Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning ta'sirini o'rganishning yangi yondashuvlari.



qiladi. Tashkiliy-ijtimoiy yondashuv, kasbiy deformatsiyaning o'zaro bog'langan ijtimoiy va tashkiliy omillarini tushunishga asoslanadi. Bu yondashuv ijtimoiy psixologiya va tashkilotlar nazariyasiga tayanadi. Unga ko'ra, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimlari va tashkilot ichidagi resurslar burnoutni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Maslach, C., & Leiter, M. P. tadqiqotlari davomida tashkilot va rahbariyatning burnout rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

**4. Pedagogik-kommunikativ yondashuv** – o'qituvchilar o'rtasida ijtimoiy aloqalar va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish. Klasterda o'qituvchilarga o'zaro tajriba almashish va samarali kommunikatsiya o'rnatish imkoniyatlarini yaratish kasbiy-pedagogik deformatsiyaning oldini olishga yordam beradi. Bu o'qituvchilarni ijtimoiy tarmoqlar orqali qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Pedagogik-kommunikativ yondashuv o'qituvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali aloqalarni rivojlantirishga asoslanadi. Bu yondashuvni pedagogik psixologiya va kommunikatsiya nazariyalari qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchilarning individual yondashuvi va o'qituvchilarga nisbatan empatiya kasbiy burnoutni kamaytirishda samarali bo'ladi. Vygotsky, L. S. o'qituvchining o'quvchi bilan kommunikatsiyasi va uning pedagogik faoliyatga ta'siri o'rganiladi. Sharp, R. G., & Gallimore, R. pedagogik kommunikatsiyaning o'qituvchilar va o'qituvchilarga bo'lgan ta'siri haqida so'z yuritadi.

**5. Integratsiyalangan yondashuv** – o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik deformatsiyaning turli komponentlari bo'yicha o'rgatish va har

tomonlama rivojlantirish. Bu yondashuv, kasbiy va pedagogik ko'nikmalarni birlashtirgan holda, o'qituvchining psixologik holati, ijtimoiy hamkorlik, pedagogik metodologiyalar va axloqiy me'yorlar bilan uyg'un ravishda ishlashni o'z ichiga oladi. Antonovskiyning «salomatlik» nazariyasi, stressga qarshi kurash va kasbiy burnoutni oldini olish bo'yicha integratsiyalangan yondashuvni o'rganadi. Miller, J. P. pedagogika tamoyillariga tayanib, o'qituvchilarning umumiy farovonligini oshirishga qaratilgan.

Kasbiy-pedagogik deformatsiya (burnout) ni o'rganish bo'yicha bir nechta mashhur olimlarni tadqiq qilgan. Xususan, Maslach va Jackson kasbiy burnoutni o'rganish bo'yicha eng muhim asarlarni yaratdilar. Ularning *Maslach Burnout Inventory (MBI)* so'nggi yillarda kasbiy charchoqni o'lchash uchun standart testga aylandi. Maslachning asarlarida, o'qituvchilar va boshqa professional xodimlarning kasbiy-pedagogik deformatsiyaning uchta asosiy komponenti — emotsional charchoq (o'qituvchining kasbiy faoliyatida tug'ilgan emotsional va ruhiy charchoq), depersonalizatsiya (o'qituvchining o'quvchilarga sovuqqonlik bilan yondashishi, ularni inson sifatida qabul qilmaslik) va kasbiy muvaffaqiyatsizlik (o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatida qoniqmaslik hissi)ni tahlil qilingan<sup>1</sup>. Kasbiy pedagogik deformatsiya (burnout)ni o'lchash uchun ishlab chiqilgan *Maslach Burnout Inventory (MBI)* testining qo'llanmasidir. Kitobda

<sup>1</sup> Christina Maslach va Susan E. Jackson «The Maslach Burnout Inventory: Manual» (1981) Consulting Psychologists Press 68 page.

burnoutni uchta asosiy komponentga ajratish va uni o'ldirish usullari keltirilgan.

Herbert Freudenberger burnoutning ilk tushunchalarini kiritdi va uni ishlashning yuqori talablardan va ruhiy bosimdan kelib chiqqan kasbiy charchoq sifatida tavsifladi. U o'zining nazariyasida kasbiy burnoutning rivojlanish bosqichlarini keltirib chiqardi va ijtimoiy va psixologik omillarni o'rgandi<sup>1</sup>. Wilmar B. Schaufeli va Arnold B. Bakker kasbiy burnoutni va uni boshqarishning yangi yondashuvini ishlab chiqdilar. Ular *Job Demands-Resources (JD-R) Modelini* taklif qildilar, bu modelga ko'ra, o'qituvchilar va boshqa professional sohalarida burnoutning oldini olish uchun ish talablarini boshqarish va resurslarni samarali taqsimlash zarurligini ta'kidlagan<sup>2</sup>. Vandenberghe va Huberman o'qituvchilarda burnoutni o'rganishga bag'ishlangan keng qamrovli tadqiqotlarni tahlil qilganlar. Ular o'z tadqiqotlarida o'qituvchilarni kasbiy deformatsiyadan himoya qilish uchun qanday yangi metodlar va strategiyalarni joriy etish kerakligi ko'rsatilgan<sup>3</sup>.

Barcha yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib kasbiy-pedagogik deformatsiyaning rivojlanishini va uni boshqarishni tushunishga yordam beradi. Bu yondashuvlar kasbiy burnoutni oldini olish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishda, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim klasteri sharoitida pedagogik deformatsiyaning ta'sirini kamaytirish, pedagoglar uchun salbiy holatlarning oldini olish va ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim tizimini yanada takomillashtirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, sifatli ta'limni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish, ularning ruhiy-psixologik holatini barqaror ushlab turish va kasbiy deformatsiyaning oldini olish ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi yondashuvlar asosida

olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, kasbiy deformatsiya – bu pedagogik faoliyat jarayonida vujudga keladigan salbiy o'zgarishlar bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish zarurligini ko'rsatmoqda. Tadqiqot ishimizdan olingan xulosalardan quyidagilarni aytib o'tmoqchimiz:

1. O'qituvchilarga psixologik yordam ko'rsatish, ularni stressni boshqarish bo'yicha treninglar o'tkazish kerak. O'qituvchilarni muntazam ravishda o'z hissiy holatini baholashga undash va psixologik maslahat xizmatlarini taqdim etish foydali bo'ladi.

2. O'qituvchilarga o'zaro hamkorlik va yordam ko'rsatish uchun jamoaviy ishlar tashkil etish lozim. Bunda jamoaning bir-biriga bo'lgan ishonch va qo'llab-quvvatlashi ijtimoiy izolyatsiyani oldini olishga yordam beradi.

3. **Ta'lim klasteri sharoitida** kasbiy deformatsiyani aniqlash va oldini olish uchun tizimli yondashuvlar samarali bo'lib, u o'zaro hamkorlik, tajriba almashish va kasbiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. Stereotipli dars metodlarini yangilash va kreativ o'qitish usullarini qo'llash o'qituvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'qituvchining ishtiyoqini qayta tiklaydi.

Shuningdek, quyidagi bir necha takliflarni keltirib o'tmoqchimiz:

1. Har bir ta'lim klasterida **pedagogik mentorlik tizimini rivojlantirish**, yangi o'qituvchilarni tajribali ustozlar bilan birlashtirish orqali ularning kasbiy iqlimga moslashuvini yengillashtirish.

2. **Kasbiy refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish** maqsadida pedagoglarni o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va o'zini anglashga o'rgatuvchi *metodik qo'llanmalar* ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

3. **Pedagogik deformatsiyani erta aniqlash va profilaktika qilish tizimini yaratish** – buning uchun maxsus *psixologik diagnostika metodikalarini* klasterlar miqyosida tatbiq etish lozim.

4. O'qituvchilarning **yumshoq ko'nikmalarini (soft skills)**, jumladan stressni boshqarish, muomala madaniyati va konfliktologiya bo'yicha malakasini oshirish uchun *maxsus kurslar* tashkil qilish.

Yuqoridagi xulosalar va takliflar asosida pedagogik amaliyotda tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish lozim.

<sup>1</sup> Herbert Freudenberger «Burn-out: The High Cost of High Achievement» (1974) Anchor Press/Doubleday 272 page.

<sup>2</sup> Wilmar B. Schaufeli va Arnold B. Bakker «Job Demands-Resources Model of Burnout» (2004) European Journal of Work and Organizational Psychology press 10 page.

<sup>3</sup> Vandenberghe va Huberman «Burnout in Teachers: A Review of the Literature» (1999) Educational Psychology Review Journal press 40 page.

**Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
2. Hubert Langerock «Professionalism: A Study in Professional Deformation». American Journal of Sociology Volume 21, Number 1 (1915) 30-44 page. - <https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/212465>
3. Sorokin, Pitirim Aleksandrovich Philadelphia; J.B. Lippincott Company, (1925) 428 pages. - <https://catalog.hathitrust.org/Record/000974108>
4. Georg Kershenstein. «Berufliche Deformation und ihre Verhütung». «Hogrefe Verlag» press. 1937, 143 page
5. Christina Maslach va Susan E. Jackson «The Maslach Burnout Inventory: Manual» (1981) Consulting Psychologists Press 68 page
6. Herbert Freudenberger «Burn-out: The High Cost of High Achievement» (1974) Anchor Press/Doubleday 272 page
7. Wilmar B. Schaufeli va Arnold B. Bakker «Job Demands-Resources Model of Burnout» (2004) European Journal of Work and Organizational Psychology press 10 page
8. Vandenberghe va Huberman «Burnout in Teachers: A Review of the Literature» (1999) Educational Psychology Review Journal press 40 page